

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:9 (67070)  
2016-yil  
29-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## BU NAZM BOG'IGA KIROLMAS XAZON...

Quyosh hamal burjiga og'ib, tabiat uyg'onmoqda. Huzurbaxsh nasimlari, quvonch-u sururlari bilan jonajon diyorumizda ko'klam nafasi kezmoqda. Bahor – yoshlik, go'zallik, nafosat, yasharish, yangilanish fasli. O'zbek she'riyatining malikasi, elimizning e'zozli qizi Zulfiyaxonimning tavallud topgan kuni bilan boshlangani uchun u barchamizga yanada qadrli. Adabiyot habibi, she'riyat shaydosi bo'lgan yurtdoshlarimiz qalbidagi o'zgacha shukuh, hayajon latif shoiramiz tavalludiga bag'ishlab o'tkazilayotgan adabiyot bayrami, ma'naviyat, she'riyat bayramlariga ko'chgan. Zulfiyaxonim:

*Bu nazm bog'iga kirolmas xazon,*

*Bizni mahv etolmas zavol lashkari.*

*Men ketsam mung'aymas umrim hech qachon,*

*Bu bog'lar bir bog'lar bo'ladi hali... – deya kelajagiga katta umid bog'lab, qalb to'rida ardoqlagan, oq yo'l tilab, duolar bergan shogirdlari – bugungi kunda xalqimiz ardog'idagi taniqli shoirlarimiz ustoz bilan bog'liq xotiralaridan so'zlashyapti.*

(Davomi 2-betda)

## BAHOR MENI QUTLASHGA KELDİ

*Quyosh, qaynoq mehringni tuydim,  
Hayot, seni onamdek suydım,  
Lolalarning taftidan kuydim,  
Bahor meni qutlashga keldi.*

*Yalpiz suvga aytdi tushini,  
Unga berdim ko'ngil qushini,  
Bolam, qara taqdir ishini,  
Bahor meni qutlashga keldi.*

*Yo'llarimda gul sochar o'rik,  
Anglamayman bu qanday ko'rik,  
Bolariga bo'libman sherik,  
Bahor meni qutlashga keldi.*

*Andaliblar tongda aytdi roz,  
Bormi bundan ortiqcha e'zoz?  
Yuragimni chechakzorga yoz,  
Bahor meni qutlashga keldi.*

AXTAMQULI

# BU NAZM BOG'IGA KIROLMAS XAZON...

(Davomi. Boshi  
1-betda)

**Nafaqat o'z zamonida, balki bugungi globalashuv davrida ham, turli ijtimoiy tarmoqlardagi ma'naviy tahdidlar orqali yoshlarimiz, ayniqsa, qizlarimiz ongiga, tafakkuriga, ma'naviyatiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazishga urinishlar bo'layotgan bir sharoitda xassos shoiramizning ibratiga ehtiyojimiz borligini, uning hayot yo'li o'zbek ayollari, qizlari uchun go'zal andoza ekanligini ta'kidlashyapti.**

Zero, Yurtboshimiz ham shoiraning bugungi avlodlarga ibrat bo'lgudek hayoti va ijodiga alohida e'tibor bilan yondashib, «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» nomli asarlarida Zulfiyani ma'naviy jasorat sohibasi sifatida ulug'laydilar...

Har yili ushbu qutlug' sana arafasida poytaxtimizdagi Zulfiya bog'ida uning o'zidek go'zal bayram bo'lib o'tadi. Tadbirda davlat va keng jamoatchilik vakillari, taniqli adiblar, shoiraning farzandlari, nabira-yu abiralari, ustoz-shogird maqomida bo'lgan ijodkorlar, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari

shoiraning xotirasiga yuksak hurmat, ehtirom ko'rsatishadi. Shoira haykalining poyi guldastalarga burkanadi. Uning tasmalarda muhrlangan mayin ovozi, she'rlariga bastalangan kuy va qo'shiqlar maydon uzra yangrab, yig'ilganlar qalbini hayajonga soladi. Zulfiyaxonim ko'ngil xotirjamligidan yorishgan chehrasi, botiniy muhabbatidan porlagan nigohlari bilan yig'ilganlarga mehr ulashayotgandek taassurot qoldiradi, Kishida...

Beg'ubor qalbidan to'kilgan go'zal she'rlari bilan shoira boshlab bergan ajib mushoirani davom ettirayotgan uning izdoshlariga havas-la boqib, ko'nglimiz nurlanadi va beixtiyor shoiraning go'zal misralari yodimizga keladi: bu bog'lar bir bog'lar bo'ladi hali...

Feruza JALILOVA,  
«Shuhrat» medali sohibi

## ZULFIYA DARSII

**Bahor — fasllar kelinchagi. Endigina uyqudan ko'z ochgan zaminni maysalarga burkab, borliqni go'zallikka chulg'ovchi nafosat elchisi.**

Adabiyot ahli, she'riyat shaydolari bahorning ilk kunini o'zgacha quvonch bilan qarshi olishadi. Chunki bu kunda elimizning suyuqlik farzandi Zulfiya tavallud topgan. O'z bilimi, tafakkuri, betakror asarlari bilan milliy adabiyotimizda o'ziga xos o'rin tutgan shoirani har safar yod etganimizda, ko'ngillar zavqqa to'ladi.

Bugun darsga o'zgacha kayfiyat bilan kirdim. Chunki o'tiladigan mavzu Zulfiyaxonim ijodiga bag'ishlanadi.

**Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yertlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...**

Shoiraning satrlarini o'qir ekanman, o'quvchilarim she'rni davom ettirishga chog'lanadi. O'quvchim Dilnoza zohiran shoira obrazini gavdalandiradi. Dilshod Hamid Olimjon siyomosida shoira yuzlanadi. Qalbni larzaga soluvchi monolog ikki qalbning otashin muhabbati, armonli taqdir sinovlaridan so'ylaydi. Zulfiya qalamiga mansub she'rlardan tuzilgan bahribayt uzoq davom etadi.

Nodira NIYAZOVA,  
Borovskiy nomidagi Toshkent  
tibbiyot kolleji o'qituvchisi



**Yurtimizda farzandlarimizning iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, ularning milliy va jahon musiqasi durdonalari hamda tasviriy san'at namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.**

## MUSIQA — TA'LIMNING MUHIM YO'NALISHI

Bugungi kunda mamlakatimizning 283 ta bolalar musiqa va san'at maktablarida 59 ming nafar o'quvchi musiqa va san'at sirlarini o'rganishmoqda. Prezidentimizning 2008-yil 8-iyuldagi «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinishi musiqa va san'at ta'limi tizimida tub o'zgarishlarni boshlab berdi. Agar 1991-yilda 3 nafar o'quvchilarimiz xalqaro tanlovlarda ishtirok etgan bo'lsa, 2008-yilda 31 nafar, 2015-yilda 137 nafar iste'dodli yoshlarimiz Fransiya, Italiya, Germaniya, Rossiya, Ozarbayjon kabi davlatlarda o'tkazilgan nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

2008-yilda bolalar musiqa va san'at maktabida Respublika bo'yicha jami 38 ming o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2015-yilda 52 foizga oshib 59 mingga yetdi. Ularga 10 mingga yaqin pedagoglar san'at sirlarini o'rgatishmoqda.

Kuni kecha Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 18-bolalar musiqa va san'at maktabida «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrdagi «Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016–2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori ijrosiga doir matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Mazkur Qarorga muvofiq ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida to'lov tizimi



takomillashtirilib, musiqa yo'nalishida 1 nafar o'quvchi uchun Toshkent shahrida eng kam ish haqining 75%, viloyat markazlarida 50%, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda 30% qilib belgilandi. San'at yo'nalishida esa 1 nafar o'quvchi uchun Toshkent shahrida eng kam ish haqining 50%, viloyat markazlarida 30%, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda 20% qilib belgilandi. Qarorga ko'ra bolalar musiqa va san'at maktabida bir oiladan 2 yoki undan ortiq bolalar ta'lim olsa, ularning faqat bittasiga badal puli to'lanadi.

Unga ko'ra, 2016–2020-yillarda aholi zich yashovchi hududlarda jami 14700 o'rinni 98 ta musiqa va san'at maktablari barpo etish ko'zda tutilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, san'atga oshuftalik yoshlarimizda bunyodkorlik, yaratuvchanlik hislarini uyg'otadi. Bu esa kelajakda ularni o'z oldiga qo'yg'an ulug' maqsadlar sari yetaklaydi.

Jamoliddin  
ABDULLAYEV



Sh. KAZAKBAYEV olgan suratlar

## BITIRUVCHILAR UCHUN

### Ochiq eshiklar kuni

**Mana, umumta'lim maktablarida uchinchi chorak yakunlanishiga ham bir oy qoldi. Kunlar ortidan kunlar o'tib, 9-sinf o'quvchilarining jonajon maktab bilan xayrlashish onlari ham yaqinlashib kelmoqda.**

Bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichini qayerda davom ettirishlari haqida rejani hozirdanoq belgilashmoqda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkazilayotgan «Ochiq eshiklar kuni» umumta'lim maktablari bitiruvchilarini o'zlari qiziqqan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishlarini ta'minlashda asosiy omil bo'lmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus kommunal xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji bo'lib o'tgan «Ochiq eshiklar kuni»da shaharda joylashgan 25 ta umumta'lim maktablari bitiruvchilari va ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Hozirda 380 o'quvchi ta'lim olayotgan mazkur ta'lim maskanida asosan, kommunal xo'jaligi, gaz-suv ta'minoti korxonalarini uchun malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Tadbir doirasida o'quvchilar yaqinda rekonstruksiya qilingan sport zali, 19 ming kitob fondiga ega axborot-resurs markazi, 12 ta fan to'garagi, 5 ta sport seksiyasi hamda 100 o'quvchiga mo'ljallangan turarjoy binosi va oshxona bilan yaqindan tanishdilar. Kollej o'quvchilari tomonidan yaratilgan maketlar, amaliy san'at buyumlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Maktab o'quvchilari uchun yangi pedagogik texnologiyalar asosida zamonaviy o'rgazmali qurollar bilan boyitilgan ochiq darslar uyushtirildi.

Umumta'lim maktabi bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga jalb etishga bag'ishlangan bu kabi tadbirlarni Qoraqalpog'iston Respublikasining 93 ta kasb-hunar kolleji va 10 ta akademik litseylarida tashkillashtirish ishlari davom etmoqda.

OLMOS



**«SINFIMIZDA SEVIMLISAN...»**



Men 4-sinf o'quvchisiman. Sevimli gazetamizga sinfimiz bilan bir yilga obuna bo'ldik.

Uning har bir sahifasini diqqat bilan kuzatib boramiz. Men tengdoshlarimning turli mavzularda chizgan rasmlarini ko'rib, zavqlanaman. Ulardek chiroyli chizishga harakat qilayman. Do'stlarim ortishiga sababchi bo'layotganliging uchun

ham seni juda yaxshi ko'raman, «Tong yulduzi»!  
**Xurshidaxon ALIMOVA,**  
 Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 159-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**O'RGANISH YOSH TANLAMAS**

*Bobojonim 70 yoshdalar. 1-sinfda o'qishni endi o'rganayotgan paytimda bobojonim yangi o'zbek alifbosini men ham o'rgansam bo'ladimi, sizlar obuna bo'lgan gazeta-jurnallarni birgalikda o'qirdik, deb qoldilar.*

Ustozim Arzigul Do'stovadan «Alifbo»ni va o'qish-yozishni tezda o'rganib olgandim. Bobomga ham asta-sekin yangi harflarni o'rgata boshladim. To'rt oy deganda sharillatib o'qiydigan bo'ldilar. Bizga havas qilib, buvijonim ham biz bilan birga dars tayyorlaydigan bo'ldilar.



Opam Nasiba «Gulxan»ga, ukam Sunnat «G'uncha» jurnaliga obuna bo'lishgan. Men va bobom esa har yili «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lib, birgalikda mutolaa qilayapmiz.

**San'at BARATOV,**  
 Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 87-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

**MULOHAZA UCHUN MAVZU**

*Inson tug'ilishi bilan unga ota-ona chiroyli ism qo'yadi. Ismiga monand bo'lsin deya orzu qiladi.*

Lekin bolalar o'rtasida bir-biriga ism o'rniga laqab qo'yib yurish odat tusiga aylangan. Masalan, bizning sinfda ham o'rtog'larim bir-biriga laqab qo'yib olishgan. Mening ham laqabim bor. Fikrimcha, sinfdoshlar bu odatlarini tashlagani ma'qul. Chunki birovga laqab qo'yib chaqirish eng katta hurmatsizlik, deb bilaman.

Aziz tengdoshlar! Bu borada siz nima deysiz?  
**Feruz NAZAROV,**  
 Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi «Qaqnus» adabiyot va jurnalistika to'garagi a'zosi

**1-mart – Giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi xalqaro kurash kuni**

Aziz tengdoshlar, vabo kasalligi haqida hech eshitganmisiz? Bu kasallik emas, balki ofat ekanini-chi, bilasizmi? Vabo shunday tez va oson tarqalganki, hatto insonlar kasallikni qanday, qay tarzda yuqtirib olishganini sezmay ham qolishgan. Bugun butun dunyo muammosiga aylanayotgan giyohvandlik ham vabo singari asta-sekin yer yuzini o'z domiga tortib bormoqda.

**BIZ GIYOHVANDLIKKA QARSHIMIZ!**

O'tgan asrdan boshlab bu ilat global muammoga aylana boshladi. Ayniqsa, uning yoshlar o'rtasida avj olib ketishi achinarli holdir. Giyohvandlikka ayrimlar bilib turib, ayrimlar esa aldov yo'li bilan kirib qolishadi.

Bizning mamlakatimizda kelajak avlodni giyohvandlikdan asrab-avaylash, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatish borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir maktab, o'quv muassasalarida mavzuga oid tadbirlar o'tkazilmoqda. O'quvchilarga giyohvandlikning salbiy oqibatlarini haqida atroflicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bizning maktabimizda ham har yili qator tashkilotlar



hamkorligida «Biz giyohvandlikka qarshimiz!» mavzusida tadbir o'tkaziladi. Tadbir doirasida devoriy gazetalar, referatlar, sahna ko'rinishlari tayyorlaymiz. Asr vabosiga qarshi har birimiz kurashishimiz lozim. Axir yurtimiz kelajagi bizning qo'limizda. Biz esa har tomonlama sog'lom, aqlan yetuk va jismonan barkamol bo'lishimiz shart. Yurtimiz yoshlari bir ovozdin – «Biz giyohvandlikka qarshimiz!» deymiz.

**Odina SAHOBIDDIN qizi,**  
 Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

**BAHRIBAYT**

**bellashuvlarida nafaqat o'quvchilar, balki ustozlar ham imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdilar**

*Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 8-umumta'lim maktabida adabiyot fani oyligi yakuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.*

Unda shahar umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, tumanlardagi tajribali uslubchilar ishtirok etdilar. Adabiyotimizning jonkuyar targ'ibotchilaridan biri, shahar xalq ta'limi Bosh boshqarmasining ona tili va adabiyot fani uslubchisi Gulchehra Mamanbayeva oylik davomida shahar maktablarida olib borilgan turli tadbirlar va ularning yoshlar ma'naviy olamining boyitishdagi roli haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Ustozlarning bahribayt bellashuvlarida Olmazor, Mirzo Ulug'bek va Yashnobod tumani vakillari zukkoliklarini namoyish etdilar. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek tumanidan Munira Ibragimova, Uchtepa tumani vakilasi Nilufar Yo'ldoshevaning tuman maktablarida mazkur fanning o'qitish jarayonidagi yangiliklar, olib borayotgan ishlari haqidagi ma'lumotlari ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

Sergeli tuman XTMFMTE bo'limi ona tili va adabiyot fani uslubchisi Nurxon Nazarovaning tadbiri rang-barang, mazmunga boy o'tishidagi xizmatlarini ham alohida ta'kidlashni istardik.



ZUBAYDA o'igan suratlar

Anjumanni kuzatar ekanman, turli maktablardan kelgan o'quvchilar tomonidan namoyish etilayotgan sahna ko'rinishlari, chiroyli chiqishlarni zavq bilan tomosha qilayotgan ustozlarning gulgun chehrasini ko'rib, ko'nglimdan ajib hislar o'tdi. Bu ustozlar oylar, yillar davomida qilgan mehnatlari samarasini ko'rmoqda edilar. Bu nihoyatda zavqli edi.

**Yusuf ABDULLAYEV**

**ISM SHARIF KISHINI SHARAFLAYDI**

*Sharqda yangi tug'ilgan chaqaloqqa nom qo'yish necha asrlardan beri katta mas'uliyat hisoblanadi. Ko'p ota-onalar bolaga ism qo'yilayotgan vaqtda uning ma'nosiga emas, balki jarangdorligi, el orasida keng tarqalganligi hamda urf bo'lganligiga qarab tanlaydilar.*

Ba'zan biror-bir yaqinlari, ixlos qo'ygan kishilariga mehr-u muhabbat bildirib, uning ismini munosib ko'radilar. Hozirgi kunda yana bir yomon odat keng avj olmoqda. Yosh ota-onalar kattalar bilan maslahatlashmasdan jondan aziz farzandlariga chet el seriellaridagi qahramonlarni ismlarini qo'ymoqdalar. Masalan, Ishani, Izaura, Indira, Soniya (bu qahramonlar nima ish qilbdiki, havas qilsalar). Uning o'rniga o'zimizning buyuk ajdodlarimizning ismlari: Bobur, Zebuniso, Alisher, Nodirabegim ismlarini qo'yishsin. FHDYO bo'limida o'tirgan mas'ul kishilar nega e'tiroz bildirmaydilar, maslahat bermaydilar? Ismlarda

insonlarning orzu-armonlari, did-farosati ifodalanadi. Ism insonga berilgan shahodatnoma kabi umrining oxirigacha u bilan birgadir. «Ismi sharif» kishini sharaflaydigan ism degani. Ya'ni, xalqimiz har bir odam o'z ismi ma'nosini anglab, ismi jismiga mos bo'lsin. Shunday voqealarni guvohi bo'lganmizki, kishilar ota-onasi qo'ygan ismdan ayib hislar o'tdi. Bu ustozlar oylar, yillar davomida qilgan mehnatlari samarasini ko'rmoqda edilar. Bu nihoyatda zavqli edi.

**Zilola BARNOYEVA,**  
 Navoiy viloyati, Uchquduq tumanidagi 10-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

- Bugun maktabimizda o'tkaziladigan tadbirga she'r yodlashim kerak...
- Men ingliz tili fanidan berilgan vazifalarni ertaroq bajarishim lozim...
- Men esa darsdan keyin sport to'garagiga boraman...

## BILIMDONLAR BIRLASHGAN DARGOH

Olis Termiz shahridagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchilari bu gaplarni har kuni takrorlashadi. Boisi, mazkur maskanda har bir fan to'garaklari darslardan so'ng o'quvchilar ixtiyorida.

Norgul opa Hasanova rahbarlik qilayotgan maktabda 614 nafar o'quvchiga 34 nafar o'qituvchilar turli fanlardan saboq berishadi. Boshlang'ich sinflar o'rtasida ingliz tilida «ABS» deb nomlangan tadbirning o'tkazilishi bolalarga katta quvonch bag'ishladi. Kichikintoylarning ingliz tilida she'rlar aytishi, rasmlarga qarab matn tuzishlari hatto kattalarni ham lol qoldirdi.

Yana bir gap: yaqinda 1-sinf o'quvchilarining unutilmas bayramlaridan biri – «Savodxonlik bayrami» bo'lib o'tdi. O'quvchilarning har bir tayyorlagan raqslari-yu harflar timsolida biyron-biyron so'zlashlari, sahna ko'rinishlari barchaga manzur bo'ldi.

Yuqori sinf o'quvchilarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Shoira Shukrullayeva boshchiligida Navoiy va Bobur tavallud kunlariga bag'ishlab o'tkazgan tadbirlarida 8–9-sinf o'quvchilari shoirlarning g'azal va ruboiylarini maromiga yetkazib aytib berishdi. Navoiyning hayotiga oid sahna ko'rinishi esa yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Bu maktabda sport sohasida ham talaygina muvaffaqiyatlarga erishgan o'quvchilar bor. Ana shunday o'quvchilardan biri 5-

«A» sinf o'quvchisi Dinara Mamasoliyeva Termiz shahar maktablari orasida o'tkazilgan «Umid nihollari» sport musobaqasida stol tennisi bo'yicha ishtirok etib, maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi.



**Aziz bolajonlar, sizning maktabingizda-chi, sport sohasida, turli bellashuvlarda qo'llari baland kelayotgan o'quvchilar bormi? Unda ular haqida bizga, albatta, yozib yuboring. Maktublaringizni kutamiz!**

Ozoda **TURSUNBOYEVA**

## GO'ZAL DIYORIM MENING

Termiz shahridagi Yoshlar markazida «Go'zal diyorum mening» deb nomlangan foto va tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

Taniqli rassom Tursunpo'lat O'roqov va foto san'ati ustasi Rozaliya Baykovaning ijod namunalari namoyish etilgan mazkur ko'rgazmada o'quvchilar «Uch ko'l oqshomi», «Boysun temiryo'li», «Jajji rassom», «Sharq ayollari», «Baxtli bolalik» kabi asarlar bilan tanishdilar.

– Ko'rgazmaga besh yashar qizim Muslimani ham olib keldim. Asarlarda aks etgan tabiat go'zalliklari, ijtimoiy hayot voqealari va yurtimizda amalga oshirilayotgan yuksalishlar ro'yobi kishini hayratga soladi.

Rassomlarning mahorati hatto jajji qizchamni hayratga soldi, – deydi ko'rgazma mehmoni Feruza Qurbonova.

«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi ijrosi doirasida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi hamkorligida tashkil etilgan ushbu ko'rgazma inson ma'naviy dunyoqarashini boyitib, yoshlarning milliy va umumbashariy qadriyatlariga hurmat ruhida kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi.

**NURBEK**



## PIFAGOR –


**matematikmi yoki musiqashunos?**

**Aziz o'quvchi, sizga matematika fanidan ma'lum bo'lgan Pifagor teoremasi aslida u yaratgan maktab bilan bog'liq ekanini bilasizmi?**

Alloma eramizdan avvalgi VI–V asrlarda yashab o'tgan mashhur matematik olim bo'lib, u hamma narsaning asosini sonlar tashkil qiladi, deb hisoblagan. Pifagor ta'limotiga ko'ra, olamni bilish – sonni bilishdan iborat bo'lib, unda sonlarni moddiyatdan ajratib, mustaqil kuchga ega degan g'oya ilgari suriladi. Olimning matematika, geometriya, musiqa, me'morchilik, haykaltaroshlik kabi sohalar rivojiga qo'shgan hissasi beqiyos.

Shuningdek, Pifagor o'z ilmiy izlanishlari davomida musiqa xususida ham to'xtalib, mumtoz kuylar yordamida tushkunlikka tushish va boshqa ruhiy kasalliklarni tuzatish mumkinligini isbotlagan.

Munajat **BAHROMOVA**,  
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi



## INTILUVCHAN SINF SARDORI

**Xolida Jamoliddinova poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 8-«V» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U iqtidorli va tirishqoq qiz.**

Bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblarni o'qishni, rasm chizishni, she'rlarni ifodali o'qishni, kashta tikish-u to'qishni juda yaxshi ko'radi. Rus va ingliz tillarida bemalol so'zlasha oladigan Xolida fransuz, nemis, turk tillarini o'rganish orzusida. Uning kelajakda orzusi malakali va mehribon ustozlari singari o'qituvchi bo'lish. Yaqinda uning ijodiy ishlari bilan tanishdim. Ular bir-biridan chiroyli, mohirona bajarilgan. Bundan tashqari, u qator fanlardan maktab va tumanda o'tkaziladigan fan olimpiadalarining faol ishtirokchisi ekan. O'z ustida tinimsiz ishlayotgan tengdoshingizga juda havasim keldi.

– Xolida 8 yildirki, sinf sardori. U maktabimizning faxriga aylangan, – deydi sinf rahbari Dilbar Abdurahmonova suhbatimiz chog'i g'urur bilan.

Muloqotimiz so'nggida Xolida menga o'z qo'llari bilan tikkan atirgulli kashtasini sovg'a qildi. Insonning qo'llari gul, deganlari rost ekan, ko'z nuri-yu bor mehrini qo'shib tikkan ushbu kashta men uchun dunyodagi eng qimmatli sovg'a edi.

**Sofiya NAZAROVA**



Lesson 76

Grammar corner

REGULAR AND IRREGULAR VERBS

(To'g'ri va noto'g'ri fe'llar)

A regular verb is a verb that follows this rule:

Past form of the verb = Present form of the verb + ed/d

For example: work + ed = worked  
dance + d = danced

We call the present form a base form or **Verb 1**, the past form **Verb 2** and there is another form called **Verb 3** that is used in the Perfect Tenses.

These are examples of Regular verbs:

V1	V2	V3
help	helped	helped
open	opened	opened
stop	stopped	stopped

An irregular verb is a verb that does not follow that rule, but it is made by changing the root of the word.

These are examples of irregular verbs:

V1	V2	V3
take	took	taken
buy	bought	bought
eat	ate	eaten

Dear pupils here you can see the list of irregular verbs. Follow and learn by heart the verbs. Make the sentences and send us.

Infinitive	Uzbek	Past Simple	Past Participle
be	bo'lmoq	was, were	been
beat	urmoq	beat	beaten
become	bo'lmoq	became	become
begin	boshlamoq	began	begun
bite	tishlamoq	bit	bitten
blow	esmoq	blew	blown
break	sindirmoq	broke	broken
bring	olib kelmoq	brought	brought
build	qurmoq	built	built
buy	sotib olmoq	bought	bought
catch	tutmoq, ushlamoq	caught	caught
choose	tanlamoq	chose	chosen
come	kelmoq	came	come
cost	turmoq, arzimoq	cost	cost
cut	kesmoq	cut	cut
do	qilmoq	did	done
draw	chizmoq	drew	drawn
dream	tush ko'rmoq	dreamed or dreamt	dreamed or dreamt
drive	haydamoq	drove	driven
drink	ichmoq	drank	drunk

Exercise 1. Write the Past (V2) and Past Participle (V3) form of these verbs.

- get - got - ...
- do - ...
- begin - ...
- come - ...
- be - ...
- draw - ...
- cut - ...
- choose - ...
- build - ...
- catch - ...

TONGUE TWISTERS

(Tez aytishlar)

Komila kept keys and kettle,  
Karim kept the kite kitten.

When birds babble,  
Bobur baked bread.

Prepared by Dinora SHAKIROVA

SPRING CAME ASKING FOR YOU

(Bahor keldi seni so'roqlab)

In cool mornings, in almonds bloom,  
Spring on violets lips and grounds.  
The birds' flight, winds whim,  
Spring on velvet valleys and uploads.



How you loved the spring, my soul,  
You were charmed the apricot's bloom.  
Every awoken buds as give the life,  
Moving to your eyes and kissing it.

Translated by Ibrohim FAYZIRAHMONOV,  
the pupil of the republic television and radio college

THE HEAD OF WEALTH IS HEALTH

(Boylikning boshi sog'lik)




- The head of wealth is health.
- Child's health is mother's wealth.
- Your cleanliness is your health.
- Wealth is vast wealth.
- If you wish health, don't eat much  
If you wish respect, don't say much.
- Common since is whole since.
- Where is healthy body there is healthy mind.
- Healthy heart - mountain heart.
- Health - life's guarantee.
- People's health is country's wealth.

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum by Uzbek State World Languages University

CROSSWORD



Questions:

- Herald of spring (flower).
- Our sun and moon at home.
- It goes a lot in Spring (weather).
- What hasn't be in spring but in winter a lot.
- What our national holiday do we celebrate in spring?
- What colour will be in spring everywhere?



Kumush TURG'UNOVA,  
the pupil of school number 54 in Urta Chirchiq district, Tashkent region

## SUYUKLI NABIRAMAN

Buvim meni erkalab,  
Ona qizim, deydilar.  
Boshimni asta silab,  
Yuksak tog'im, deydilar.

Kelganimda dunyoga,  
Ismim Sevinch qo'ydilar.  
Zo'r ijodkor bo'lsin, deb,  
Hammadan ko'p suydilar.

Men buvimning ishonchin,  
Oqlashga so'z beraman.  
Shuning uchun maktabda,  
A'lo o'qib kelaman.

**Sevinch DILSHODOVA,**  
Toshkent viloyati, Zangiota  
tumanidagi 42-umumta'lim  
maktabining 4-sinf o'quvchisi

## KELDINGMU, BAHOR?!

Yuragimning yo'ldoshi,  
Ona yurtim quyoshi,  
Dilginamning bardoshi,  
Yana keldingmu, bahor?!

Gullar ochilar hamon,  
Yurtimiz bo'lsin omon,  
Sen erursan biz tomon,  
Yana keldingmu, bahor?!

Yayrab kulaylik har dam,  
O'g'il-qizlar bo'lib jam,  
Gullaring dilga malham,  
Yana keldingmu, bahor?!

**Xumora JO'RAYEVA,**  
Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod tumanidagi  
83-umumta'lim maktabining  
7-sinf o'quvchisi

## BUVIJONIM OYQIZMAN

Hikmat erur so'zlari,  
Mehr to'la ko'zlari.  
Oydek oppoq yuzlari,  
Buvijonim bor bo'lsin.

To'qqizta nabirasi,  
Sochiniy yo'q qorasi.  
Uyimiz farishtasi,  
Buvijonim bor bo'lsin.

Munkillab yurishi ham,  
Jilmayib turishi ham,  
O'ziga xo'p yarashgan,  
Buvijonim bor bo'lsin.

**Zuhra QAHHOROVA,**  
Andijon viloyati, Buloqboshi  
tumanidagi 31-umumta'lim  
maktabining 7-sinf o'quvchisi

Mening ismim bilsangiz,  
Bu sir emas, oyqizman.  
Tun zulmatin yoritgan,  
Oy shu'lasini kunduzman.

Malika deb o'ylamang,  
Ko'rib boshimda tojim.  
Men shunchaki quvnoq qiz,  
Ezgu-quvonch sirdoshim.

Kutib oling, ertaga  
Bahor bo'lib kelaman.  
Quyoshdan zavq-shavq olib,  
Sizga hamroh bo'laman.

**Nafisa SHOKIROVA,**  
poytaxtimizning Shayxontohur  
tumanidagi 299-umumta'lim  
maktabining 5-sinf o'quvchisi


## KAPALAK

Guldan gulga qo'nasan,  
Jajji, mitti kapalak.  
Harirdir qanotlaring,  
Sen go'yoki kamalak.

Gulzorimga fayz berib,  
Yashnatib yur gullarni.  
Yuzlarin chang-u g'ubor,  
Qoplamasin ularni.

**Noila AHMADOVA,**  
Surxondaryo viloyati,  
Denov tumanidagi  
46-umumta'lim  
maktabining 7-«A» sinf  
o'quvchisi

## BOYCHECHAK



Boychechagim boylanding,  
Ishonch berib ko'klamga.  
Sen singlimga aylanding,  
Xush kelibsan o'lkamga!

Qor ostida dildirab,  
Boqishingda umid bor.  
Orzu bo'lib qalbmida,  
Oqishingda umid bor!

Sen bahorning elchisi,  
Bo'lib kirding kitobga.  
Men-chi, seni o'xshatdim,  
Jajjigina oftobga.

Kulib qarshi olaman,  
Bahorni – ko'klamoyini.  
Qishni yenggan azamat –  
Martni, o, o'ktam oyni.

Do'stlar, chillak va kurash,  
Otga minib quvnaman.  
Onamni bahor bilan,  
Bayram bilan qutlayman.

Izn bermam ko'z yoshga,  
Shodlik mangu bo'lgay yor.  
Endi meni quyoshga,  
O'xshaydigan singlim bor.

**Bahodir BAHROM**

Olti yoshli qizaloq Tessining ukasi og'ir kasal bo'lib qoldi. Oradan bir hafta ham o'tdiki, hech tuzala qolmadi. Tessi odatda kasal bo'lsa, uch-to'rt kundayoq tuzalib, chopqillab ketardi. Otasining tashvishli yuzi, oyisining izillab yig'lashidan bildiki, ukasining ahvoli juda yomon...

Bugun ham karovatida qimir etmay ko'zlarini yumib, jimgina yotgan ukasining boshida

biroz o'tirgach, Tessi og'ir uh tortganicha uning peshonasidan o'pib xonadan chiqdi. Shu payt qo'shni xonadan ota-onasining sekin gaplashayotgani qulog'iga chalindi. Oyisi hiqillar, otasi esa uni ovutishga harakat qilardi.

Tessi uning umidsizlik bilan: «Endi uni faqat va faqat mo'jiza qutqarishi mumkin...», degan gapini eshitdi-yu, o'z xonasiga yugurdi. Bekitib qo'ygan pullarini olib

sh o s h a - p i s h a cho'ntagiga solar ekan, ko'zlari sevinchdan porlab ketgan, dilida faqat bir gap aylanardi: «Ukajonimni qutqarish mumkin... Uni mo'jiza qutqara olar ekan...». Tessi anchadan buyon yig'ib yurgan mayda chaqalardan iborat bor bisotini oldi-yu, dorixonaga qarab chopqillab ketdi.

Peshtaxta yoniga yaqinlashar ekan, nafasini rostlashga ham ulgurmay:

– Men... mo'jiza sotib olmoqchiman, menga mo'jiza bering,  
– dedi u dorixonaga sotuvchisiga hovliqib.

– Kechirasan, tushunmadim, nima kerak? – ajablandi sotuvchi.

– Ukam og'ir kasal. Uni faqat mo'jiza qutqarishi mumkin ekan. Iltimos, bir dona bo'lsa ham bering, pulim bor, – dedi Tessi paltosining cho'ntagidan g'ijimlanib ketgan pullarni kaftida mahkam siqqancha dorixonachiga uzatar ekan.

– Dorixonada unday narsalar sotilmaydi...

Qizaloqning umidvor ko'zlari, hayajondan qizarib ketgan yuzini sal nariroqdan kuzatib turgan bir odam unga yaqinlashdi.

– Isming nima, bolajonim?

– Tessi, – iymanibgina javob berdi qiz notanish kishiga xavotirlanib boqarkan.

**Kristi TILMANN**



– Senga qanaqa mo'jiza kerak, qizalog'im? – yana so'radi u.

– Men... bilmayman. Ha, haligi ukamning kasalini tuzatadigan...  
– qizchaniy ma'yus ko'zlarida quvonch va ilinj jilvalandi.

– U holda, senga qanday mo'jiza kerakligini bilish uchun ukangni borib ko'rishim kerak, – dedi notanish odam uning boshini silar ekan.

– Rostdanmi? – qizaloqning ko'zlari quvonchdan porlab ketdi. – Sizda shunday mo'jiza bormi?

– Menimcha, bo'lsa kerak...

– Unda yuring tezroq, – Tessi mehribon kishining qo'lidan mahkam ushladi-yu, uyi tomon tortqilab ketdi.

...Ostonada shahardagi mashhur jarrohni ko'rgan ota-ona quvonchdan yig'lab yuborishdi. Shifokor bolakayni obdon tekshirar ekan, Tessi oyisining otasiga qarata: «Qiziq, bu mo'jizaning bahosi qancha turarkin?» deganini eshitib qoldi. Qizaloq oyisining ko'ylagidan sekin tortqilab o'ziga qaratgach, shirin jilmayib qulog'iga asta shivirladi: «Oyijon, xavotir olmang, bu mo'jiza qancha turishini men bilaman». Oyisi Tessining boshini silab peshonasidan o'pib qo'yar ekan, qizining kaftida uvadasi chiqib ketgan bir dollar-u ellik sent va yuzidagi samimiy ishonchni ko'rib, ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi...



Yaqinda poytaxtimizda mini-futbol bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi munosib ishtirok etib, yakunda kumush medalni qo'lga kiritdi.

## FUTZALCHILARIMIZ ILK BOR JAHON CHEMPIONATIDA



hisobidagi g'alaba vakillarimizga yarim final hamda ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini taqdim etdi.

Yarim final bahsida futzalchilarimizga Tailand terma jamoasi ro'baro' bo'ldi. Asosiy va qo'shimcha vaqtlarda hisob 2:2 natijasi bilan yakunlangach, hakam jamoalarni penaltilar seriyasiga taklif etdi. Futzal lotoreyasida esa omad yurtdoshlarimizga kulib boqdi va ular 3:1 hisobidagi g'alaba bilan final bosqichiga yo'l oldilar.

Eronga qarshi bo'lib o'tgan hal qiluvchi o'yinda vakillarimizga biroz omad yetishmadi. Garchi ushbu bahsda terma jamoamiz birinchi bo'lib hisobni ochgan bo'lsa-da, yakunda forslar ikkita to'p kiritib, g'alabani o'z tomonlariga og'dirishdi. Shunday qilib, bu galgi Osiyo chempionatida O'zbekiston futzal terma jamoasi o'z tarixida to'rtinchi bor kumush medalni hamda jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Sa'dullo TURSINOV

Aytish mumkinki, bu galgi Osiyo chempionati har galgidan-da ko'tarinki ruhta o'tdi. Boisi, ushbu musobaqa eng kuchli 5 jamoaga jahon chempionati uchun yo'llanma taqdim etishi bilan ahamiyatli edi. Biz uchun quvonarlisi, O'zbekiston futzal terma jamoasi turnirda o'zining eng ajoyib o'yinlarini o'tkazib, muxlislarga olam-olam zavq ulashdi.

Vakillarimiz guruhdagi ilk uchrashuvda Saudiya Arabistoni terma jamoasiga qarshi maydonga tushdi. Mazkur bahsda futzalchilarimiz o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, yakunda 3:1 hisobidagi g'alabani tantana qilishdi. Guruhdagi qolgan ikki uchrashuvda ham Xose Mariya Mendez shogirdlari Qirg'iziston va Ivanlik mini-futbolchilarni maydondan bosh egib chiqib ketishga majbur etdi.

Iroqlik raqiblariga qarshi o'tkazilgan chorak final bahsida O'zbekiston terma jamoasi turnirdagi eng ajoyib o'yinlaridan birini namoyish etdi. O'yindagi 3:0

## ISLOMBEK - O'ZBEKISTON CHEMPIONI!

**Qilichbozlik - chaqqonlik va epchillik talab qiladigan sport turlaridan biri.**

Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi 37-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Islombek Mahbubjonov qilichbozlik san'atini o'zlashtirayotgan sportchilardan biridir. U o'tgan oyning 7-8-yanvar kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida sablya yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

— Qilichbozlik to'garagiga o'quvchilarni saralashda nafaqat ularning jismoniy epchilligiga, balki bellashuv chog'ida talab qilinadigan ziyraklik, uzoqni ko'ra bilish mahoratiga tayanaman. Bu xislatlarning barchasi shogirdim Islombekda mujassam, — deydi murabbiy Alimardon Havasov.

Yosh bo'lishiga qaramay, ustozining ishonchini oqlayotgan qahramonimiz bugun respublika chempioni. U jahon arenalarda munosib bellashishni orzu qiladi. Xolis niyatlar esa g'alabaga yetaklashi tayin.

Muhammadsodiq ALIMOV

## CHOPAG'ONLAR BELLASHUVI

**Yaqinda Andijon shahrida 16-17 yoshdagi o'smirlar va qizlar o'rtasida yengil atletika bo'yicha mamlakat chempionati bo'lib o'tdi.**

2362 ochko bilan O'g'iloy Tursunova qizlar o'rtasidagi beshkurash bahslarida 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Asilbek To'raqulov oltikurashda 3651 ochko bilan o'g'il bolalar o'rtasida tengsizligini ko'rsatdi. 60, 400, 800 va 1500 metr masofaga yugurishda Laziz Habibov, Abbas Nurillayev, Mirsaid Buxorov, Violetta Ivanina, Kamila Rajapova, Maryam Tojiboyeva marra chizig'ini birinchi bo'lib bosib o'tishdi. To'siqlar osha 60 metrga yugurishda Aleksandr Stepanov va O'g'iloy Abdulazizova g'olib bo'lishdi.

Uch hatlab va uzunlikka sakrashda Baxtiyor Nurmatov, Timur Saidov, Sitora Xayrullayeva, O'g'iloy Abdulazizova eng yaxshi natijani ko'rsatishdi. Yadro uloqtirishda Shahzod Mardonov va Nargiza Qo'chqorova hammadan kuchlilikini isbotladi.

200 metr masofada o'tgan estafeta bellashuvlarida poytaxtlik qizlar jamoasi, farg'onalik o'smirlar mamlakat chempioni bo'ldi.

Nozima QUDRAT qizi

## ORZU - HARAKAT DEMAK

**Chempion o'z yurtiga nima beradi, mamlakat dovrug'ining olamga yoyilishida bunday o'g'il-qizlarning o'rni qay darajada?**

Har gal tengdoshlarimizning xalqaro maydonlarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida eshitganimda, mazkur so'roqlarga javob izlayman. Bu chempionlarning yuzidagi iftixor va xushnudlikdan, jahon arenalardagi «O'zbekiston!», «O'zbekiston!» deya takror-takror jarang sochayotgan hayqiriqlardan anglaymanki, chempionlar bizda faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otadi.



Pastdarg'om tumani, Juma shahrida tug'ilib o'sgan Jahonoy Turkmanova 9 yoshidan buyon sport bilan muntazam shug'ullanib keladi. Hozirda Samarqand oliy sport mahorati maktabi tarbiyalanuvchisi bo'lgan Jahonoy o'tgan yili Latviyaning Riga shahrida o'tkazilgan yoshlar va o'smirlar o'rtasidagi sambo bo'yicha jahon chempionatida o'z vazn toifasida barcha raqibalarini yengib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

— Tengdoshlarimga nisbatan jussam kichik bo'lganligi bois boshida bu sport turi bilan shug'ullanish menga biroz qiyinchilik tug'dirdi, — deydi Jahonoy. — Murabbiyim Xurshida opa Xoliqovaning aniq ko'rsatmalari hamda mehribonchiliklari bois to'siqlarni yengib o'tdim. Hozirda barcha yaqinlarimning ishonchini oqlab, yanada katta musobaqalarda g'alaba qozonishni maqsad qilganman.

Albatta, Jahonoy murabbiylari hamda xalqimiz ishonchini bir necha bor oqladi. Dastavval, viloyat va mamlakat birinchiliklari g'olibi bo'ldi. Ko'p bora mamlakat chempionligiga erishdi. Osiyo chempionatida ikki marta oltin medalni qo'lga kiritdi. Janubiy Koreya poytaxti Seul shahrida bo'lib o'tgan yoshlar va o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida kumush medal bilan taqdirlandi. Eng muhimi, mamlakatimiz sambochi qizlari orasida birinchi jahon chempioni, degan yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

Farhod ESHMO'MINOV


## SAYFULLONING YUTUG'I

**Bugun yoshlarimiz ulkan orzular va maqsadlar sari olg'a bormoqdalar. Ularning san'at, sport yo'nalishlaridagi erishayotgan muvaffaqiyatlari tahsinga sazovor.**

Tengdoshimiz Sayfullo Hikmatullayev respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabining 5-sinfida tahsil oladi. Darsdan bo'sh vaqtlarida sportning karate turi bilan shug'ullanadi. U hozirgi kunga qadar turli musobaqalarda qatnashib, ko'plab yutuqlarga erishdi. O'tgan yili Toshkent shahar birinchiligida sovrindorlar safidan joy olgan bo'lsa, mazkur yilda Amerikaning Nyu-Jersi shahrida o'tkazilgan xalqaro musobaqada 3-o'rinni egalladi.

Murabbiysi Ruslan aka O'razimbetov Sayfulloning intiluvchanligi bilan boshqa o'quvchilardan ajralib turishini doimo ta'kidlaydi. O'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan tirishqoq do'stimizga bo'lajak musobaqalarda zafarlar tilayman.

Barno MAMAJONOVA,



Shayxontohur tumanidagi 59-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

## YULDUZCHALAR NIGOH

Oymomo yulduzlarni,  
Erkalab der: «Do'mbog'im,  
Ey mening shirintoyim,  
Erkatoyim, oppog'im».

Ba'zida lol qolaman,  
Bu dunyoning sehridan.  
Balki ular yaralgan,  
Oymomoning mehridan.

Go'yo bizga jilmayar,  
Quyoshbobo botgan chog'.  
Olislardan ko'rinar,  
Shafaqdan-da u oppoq.



Boqsang ular kechasi,  
Yonib turar milltirab.  
Oyga: «Alla ayting», der,  
Ko'zchalari mo'ltirab.

**Yulduz SHERALIYEVA,**  
poytaxtimizning **Sergeli**  
tumanidagi **285-umumta'lim**  
maktabining **8-sinf o'quvchisi**

## IXTIROLAR TARIXIDAN

### TASODIF YORDAM BERDI

Siz yomg'ir o'tkazmaydigan plashlarni bilasiz yoki ular haqida eshitgansiz. Bir vaqtlar ularni kiyish bizda ham rusum bo'lgandi. Ayrimlar uni «balonli plash» ham deyishardi. Lekin plashbop mato kim tomonidan qanday qilib ixtiro qilinganidan xabaringiz bormi?

Amerikalik tadqiqotchi Ch. Mak-Intosh 1882-yilda tabiiy kauchuk ustida tajriba olib borayotganda kiyib olgan syurtyugining (erkaklarning uzun belburna kamzuli) bir chetini tasodifan kauchukli eritmaga tegib turganini payqab qoladi. Keyin uni tozalash paytida xuddi o'sha joyi suv o'tkazmaydigan bo'lib qolganini sezadi.

Oradan bir yil o'tgach, u matoning ikki bo'lagini kauchuk yordamida birlashtirish usulini topadi. Keyin bu ixtirosi natijasida yomg'irda kiyiladigan suv o'tkazmaydigan plashlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi va bu ishni omallashtiradi.

Shuning uchun bu plashlar xalq orasida gohida «makintosh» deb ham ataladi.

**Shahlo DAMINOVA**



## «HECH NIMANI» QACHON BERASAN?

Bir kuni tulki o'rmonda ketayotgan edi. Oldidan og'ir yukni ko'tarolmay turgan ayiq chiqib qoldi. U tulkidan yordam berishini iltimos qildi. Shunda tulki:

– Yordamim evaziga menga nima berasan? – deb so'radi.  
– Hech nima, – deya javob berdi ayiq. Tulki «roziman» deya unga yordam berib yubordi.  
Ayiq unga rahmat aytib yo'lida davom etdi.



Tulki esa:

– Menga va'da qilgan «hech nimani» qachon berasan? – deb so'radi.  
– Axir men senga «hech nimani» qayerdan topib beraman, u yo'q bo'lsa, – dedi ayiq.  
Tulki undan norizo bo'lib, arz qilgani o'rmon shohi sherning oldiga kirdi va bo'lgan gapni aytdi.  
Voqeani eshitgan sher tulkiga qarab:  
– Yaxshi, senga «hech nimani» men beraman, rozimisan?! – deb so'radi.  
– Ha, roziman.  
– Unda ana u yerda turgan idishni ko'targin, tagida nima bor ekan?..  
– Hech nima...  
– Ana shu «hech nimani» olgin-da, bu yerdan jo'nab qol. Arzimagan yordaming evaziga biror narsa berishini so'rashing noto'g'ridir, – dedi.  
Ayiq sherning odilona qaroridan minnatdor bo'lib, yo'lida davom etdi.

**Shahzoda BOLTAYEVA,**  
Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi **11-umumta'lim maktabining** **7-sinf o'quvchisi**

## TUG'ILGAN KUN

Dilobarning bugun tug'ilgan kuni. Choyini ichar-

ichmas darsga shoshildi. Havo sovuqligiga qaramasdan qalbidagi iliq tuyg'u uni hayajonga solardi. Bugun 12 yoshga to'ldim. Chorak baholarim 5 bo'lsin, deya o'y surib kelardi. Maktabda sinfdosh do'stlari uni tabriklab sovg'alar berishdi. Darslarda ham o'qituvchilar bilimiga qarab a'lo baholar bilan siylashdi. Dilobar xursand bo'lgancha endi uyga shoshilardi. Ammo uyda yoshligida ertaklar, hikoyalar aytib beruvchi, odob-axloqni o'rgatuvchi, nasihatgo'y buvisi yo'q edi. U mehribon buvisini sog'inganini his etdi.


Darslarni qilib bo'lgach, opasi bilan dasturxon bezatishni boshlashdi. Kechga tomon ota-onasi ham ishdan qaytishgach, oila jamulgan bo'lib bayramni nishonlashdi. Birdan hovli charog'on bo'lib ketgandek bo'ldi. Shu kuni Dilobar negadir vaqt orqaga qaytmasligini, undan unumli foydalanish lozimligini chuqur his etdi.

**Mahliyo BEKNAZAROVA,**  
poytaxtimizning **Yakkasaroy tumanidagi** **144-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi**



## «I» HARFLI KROSSVORD

Shakldagi raqamli xonadan boshlab, «I» harfi bilan kesishadigan uchta harfli o'n ikkita so'zni diagonallar bo'yicha yozing.



Foziljon ORIPOV tuzdi

## «Pazanda qilgog'!»



## ANORLI SALAT

**Kerakli masalliqlar:** 1 kg. qizil lavlagi, 2 dona olma, 2 dona qizil sabzi, 2 dona anor, 1 dona piyoz, 4 dona sarimsoqpiyoz olinadi, 50 gr. yong'oq, 2 oshqoshiq o'simlik yog'i yoki 2 oshqoshiq mayonez, yarim bog' ko'kat, tuz, murch, maydalangan qalampir qo'shiladi.

**Tayyorlanishi:** sabzi va qizil lavlagi yuvilib qaynatiladi. Barcha sabzavotlar po'stlog'idan archilib to'g'raladi va chuqur tog'orachaga solinadi. Idishdagi masalliqa anor donalari, mayda to'g'ralgan ko'kat, ezilgan sarimsoqpiyoz, maydalangan yong'oq, mayonez va ziravorlar qo'shilib aralashdiriladi. Mayonezni xush ko'rmaydiganlar o'simlik yog'ini solishlari mumkin. Tayyor salat likopchalarga solinib, yong'oq bilan bezatiladi.

Yuqimli ishtaha!

**NARGIZA tayyorladi**

8

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
**Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

29-fevral 2016

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Nodira NAZAROVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeksi: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel/faks:** 244-63-08  
**Tel/faks:**  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi – 49019**  
**Buyurtma – S 5273**